



# TURKIY XALQLAR ADABIYOTI: ADABIY ALOQALAR, ADABIY TA'SIR VA TARJIMA

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-NAZARIY  
ANJUMAN MAQOLALAR TO'PLAMI

# TÜRK XALQLARININ ƏDƏBİYYATI: ƏDƏBİ ƏLAQƏ, ƏDƏBİ TƏSİR VƏ TƏRCÜMƏ

BEYNƏLXALQ ELMİ-NƏZƏRI  
KONFRANS MƏQALƏLƏR TOPLUSU



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI,  
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI  
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI,  
OZARBOYJON MILLIY BILIMLAR AKADEMIYASI  
NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI O'ZBEK  
TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI,  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI,  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI:  
ADABIY ALOQALAR, ADABIY  
TA'SIR VA TARJIMA”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**MATERIALLARI**

adabiyot institutiga mumtoz adabiyot masalalari bilan shug'ullanib kelayotgan barcha mutaxassislar, Sadreddin Ayniy, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Uyg'un, Amin Umariy kabi yozuvchi va shoirlar jalg etildi. Hatto viloyatlarda yashayotgan, arab va fors tillarini mukammal bilgan, madrasa ta'limini olgan Boqiy domla (Mirzaabdulla Nasriddinov), Chustiy singari ziyolilar ham jalg etildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek fol'klorshunosligining asoschisi Hodi Zarifovning fol'klor ekspedisiyasi kundaliklarining o'rganilishi va tadqiq etilishi fanning u yoki bu masalasiga oydinlik kiritishda, munozarali masalalar bo'yicha to'g'ri xulosalar chiqarishda muhim manba xisoblanadi. Yozib olingan fol'klor asarlarining matnini filologik jihatdan tadqiq etishda yoki fol'klorshunoslik tarixini yaratishda "Folklor ekspedisiya kundaliklari"dagi bitiklardan samarali foydalanish mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-жилд. – Тошкент, 2005. – 700 б.
2. Ўзбек мақоллари. Тўпловчи Шерали Рўзи. – М.: СССР халқлари марказий нашриёти, 1926.
3. Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 20-жилд. Нашрга тайёрловчилар Т.Мирзаев, Б.Мирзаева. – Тошкент: Faafur Fulom nomidagi NMIU, 2021. – 604 б.
4. Зариф X. Ўзбек совет фольклористикаси тарихидан / Ўзбек совет фольклори масалалари. Тадқиқотлар. 1-китоб. – Тошкент, 1970. – 334 б.

### **SA'DULLOH TO'RA SA'DIYNING "DEVONI SA'DIY" ASARI MATNIY TADQIQI**

**Sohiba UMAROVA**

**Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasи v.b.dosenti**

**Annotasiya.** Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida ijod etgan shahzoda shoir Sa'dulloh to'ra Sa'diyning devoni qo'lyozmasi matni tadqiq etiladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Xiva, tarix, adabiyot, qo'lyozma, devonchilik, devon, g'azal, shahzoda, shoir, Sa'dulloh to'ra Sa'diy, matn, matnshunoslik.

**Аннотация.** В статье исследуется текст диванной рукописи принц-поэт Саъдулох тора Саъди, которые жил в литературной среди Хорезма в конце XIX-начале XX века.

**Ключевые слова и выражение:** Хива, история, литература, рукопись, деванизм, деван, газель, принц, поэт, Саъдулох тора Саъди, текст, текстология.

**Resume.** The article examines the text of the divan manuscript of the prince-poet Saduloh tora Sadi, who worked in the literary environment of Khorezm in the late 19<sup>th</sup> – early 20<sup>th</sup> centuries.

**Key words and word expressions:** Khiva, history, literature, manuscript, denanism, devan, gazal, prince, poet, Saduloh tora Sadi, text, textology.

Sa'dulloh to'ra Sa'diy Xivanining so'nggi xoni Said Abdullaxon (1918-1920-yillar Xiva xoni)ning o'g'li bo'lib, bobosi Muhammad Rahimxon II Feruz saroyida o'sib, ulg'aygan. Sa'dulloh to'ra Sa'diy yoshligidan adabiyotga qiziqqadi, sharq mumtoz ijodkorlarining asarlarini o'qib chiqqadi. Sa'dulloh to'ra Sa'diy taniqli muarrix va shoir Bayoniyga shogird tushgan, 20 yoshligidan she'r mashq qila boshlagan, u arab, fors tillarini bilgan. Sa'dulloh to'ra Sa'diy haqida Bobojon Tarroh – Xodim shunday yozadi: “Sa'dulloh to'ra podshozoda oilasidan chiqqan. U juda zehni o'tkir odam edi. Bir ko'rgan narsasini, xoh arabiyl bo'lsin, xoh forsiy bo'lsin, darrov yodlab olar edi”[2, 35].

Sa'dulloh to'ra Sa'diy shaxsiyati va uning ijodi haqidagi dastlabki ma'lumotlar tazkira, majmua, estalik, bayozlarda uchraydi. Sa'dulloh to'ra Sa'diyning lirik she'rlari jamlanib, devoni tuzilgan. Uning “Devon”idan tashqari boshqa asarlari ham ma'lum. Sa'diy fors adabiyoti ta'sirida turkiy tildagi “Mufarixi qulub” deb nomlangan asarida inson hayotida tarbiyaning o'rni, inson xulq-atvori va insoniylik fazilatlarini ulug'lashga ahamiyat qaratadi. “Mufarixi qulub” nazmda yozilgan bo'lib, 10 bobdan iborat, har bir bob o'z nomiga ega, asardagi hikoyatlar, sarguzashtlar muallifning fikr-mulohazalarini yanada aniqroq bayon etish uchun xizmat qilgan. Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari matnshunoslarimiz tomonidan o'rganilgan.

Xivada Feruz topshirig'i bilan shahzoda shoirlar she'rlaridan majmular ham tuzilgan. Shulardan biri “Haft shuaro” deb nomlanadi. “Haft shuaro” majmuasi Bayoniy tomonidan tartib berilgan va unga etti nafar shahzoda shoirning she'rlari kiritilgan, shulardan biri Sa'diy bo'lib, majmuuga uning 100dan ortiq she'rlari kiritilgan[6, 12].

O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan AR-7092 inventar raqamli “Devoni Sa'diy” matni bilan tanishganimizda, qo'lyozmadagi she'rlar soni va janrlari quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ladi: **g'azallar - 175, mustazod - 2, muraba' - 1, muxammas - 14(asosiy matnda), musaddas - 5, musabba' - 2, masnaviy - 2, qasida - 3**[4].

Qo’lyozma 106 bet, 53 sahifadan iborat bo’lib, kitob to’q ko’k rangli qatiq qog’oz bilan muqovalangan, dastlabki varoq ochiq qolgan. Qo’qon fabrika nisbatan dag’alroq qog’ozida nasta’liq xatida qora siyoh bilan yozilgan. Ba’zi o’rinlar, asosan, sarlavhalar, sonlar qizil siyoh bilan ajratib berilgan. Qo’lyozmaning ba’zi varoqlari cheti bukilib, uringan. Kotibning xati aniq, qatorlari tekis tushgan.

Sa’diy she’rlari asosan oshiqona mavzuda bo’lib, ko’proq an’anaviy mumtoz lirikaga monand yozilgan. SHarq devonchilik an’anasiga muvofiq “Devoni Sa’diy” avval 1,2,3-hamd g’azallardan keyin na’t g’azal keladi. Sultoniy devonidagi g’azallar ko’proq ramal, hajaz, rajaz bahrlarida yozilgani ma’lum bo’ladi.

Ma’lumki, SHarq mumtoz adabiyotida o’zga bir shoir she’ridan ta’sirlanib, undagi vazn, qofiya va radifni saqlagan holda asar yaratish adabiy aloqa va o’zaro ta’sirning keng tarqalgan shakllaridan bo’lib, salaflar yoki zamondosh shoirlar bilan muayyan tarzda o’zaro ijodiy musobaqaga kirishish bilan bog’liq an’ana hisoblangan. “Devoni Sa’diy”ida jami 8 xil janrdagi she’rlar jamlangan bo’lib, ko’proq shoir ijodida an’analarning adabiy ta’siri ko’zga tashlanadi. Xususan, shoirning muxammaslari Alisher Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Feruz kabilarning g’azallariga yozilgan. Sa’diy muxammaslarini ustozlarga izdoshlik, ijodiy ergashish va payravlik tarzida sharhlasak xato bo’lmaydi. Qo’lyozma 80-81-betlaridagi “Zihi sariri risolat uzra erursan shoh” deb boshlanuvchi 9-muxammasga e’tibor qaratadigan bo’lsak, muxammas matni shunday beriladi:

Zihi sariri risolat uzra erursan shoh,  
Karam bila sanga Haq berdi oncha izzatu joh.  
SHariating bila tuz yo’l topar bori gumroh,  
YUz ko’zingda muayyan kamoli sun’i Illo  
Ne yuzdurur bu, ne ko’z, laa ilaaha illalloh.

Muxammas matnidan ma’lum bo’ladiki, Sa’diy muxammasi Alisher Navoiyning “G’aroyib us-sig’ar” devonidagi “YUzu ko’zungda muayyan kamoli sun’i Illo” deb boshlanuvchi na’t g’azaliga yozilgan. “Deyarli o’n asrga yaqin shoirlar tomonidan yozilgan na’t g’azallarni diqqat bilan o’qisak, hazrat Payg’ambarimiz bani basharning eng ulug’ va eng komil insoni sifatida ta’rif tavsif qilingan. SHoirlar na’t g’azallarida payg’ambar alayhissalomni oddiy maqtash yo’lidan bormay, yuksak axloq g’oyalarini ham targ’ib qilganlar. YA’ni muborak surat bilan birga ilohiy siyrat madh etilgan va ulardan ibrat olishga da’vat etilgan” [5, 3]. Sa’diy muxammasi ham payg’ambarimizning ta’rif ta’siflari, Muhammad s.a.ning Xudoyi Taoloning sharafiga muyassar bo’lgani va barcha musulmon ahli uchun payg’ambar xulq-atvori asosiy mezon ekanligini tarannum etadi.

SHabe sango qilibon lutfni Xudo shomil,  
Karam birla sani dargohig’a qilib vosil.

Qilib u dam bori maqsudlaringni Haq hosil.  
Jamoling oyinai “Vash-shams” surasi nozil,  
Ko’zing qarosig’a “mo zog” surmasi hamroh.

SHu o’rinda aytish kerakki, Sa’diy muxammasida Navoiy g’azali baytlaridagi ba’zi so’zlar o’zgargani ma’lum bo’ladi. Jumladan, biz muxammasnid 2-bandi 4-misrasida Navoiy g’azalidagi “ko’zgusi” so’zi o’rniga “surasi” so’zi yozilgan. YA’ni, Alisher Navoiy g’azalida “Jamoling oyina va-sh-shamsi ko’zgusi nozil”[1, 403 ] bo’lsa, qo’lyozmada “Jamoling oyinai va-sh-shamsi surasi nozil” [4,80 ] yozilgan. YOki muxammasning 5-bandi 5-misrasida Navoiy g’azalidagi “hasratingdin” so’zi o’rniga “furqatingdin” so’zi yozilgan. G’azalda “Emaski charx chekar kecha hasratingdin oh”[1,403] bo’lsa, qo’lyozmada “Emaski charx chekar furqatingdin o’ylaki oh” [4, 81] tarzida yoziladi. Muxammasning oxirgi bandi shunday yakunlanadi:

Bu Sa’diy ummatingiz xaylidin qavm o’lg’ay,  
SHafoating mayin ichmak onga rusum o’lg’ay.  
Kuroming bila ul sohib ulum o’lg’ay,  
Navoiy gulshanini nargisi nujum o’lg’oy,  
Ko’z uchidin onga qilsang hisob vaqtinigoh.

“Devoni Sa’diy”ida shoir g’azallaridan keyin uning muxammaslari nisbatan katta qismni egallaydi. Umuman, Sa’diy she’rlari turkona uslubga xos sodda, ravon bitilgan. Sa’diy Xorazmda yashab ijod etgan shahzoda shoirlar va ularning davr adabiy muhiti, devonchiligi takomila tutgan o’rnini belgilashda muhim manba bo’ladi.

“Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehristi”idan “Devoni Sa’diy”ning 909/ II 7022 raqamli nusxasi ham borligi aniq bo’ladi [7, 111]. YAna Sa’diy she’rlari yuqorida aytib o’tilganidek, tazkira, majmua, bayozlarda ham beriladi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti Qo’lyozmalar fondida RN-909V inventar raqamli “Devoni Sultoniy. Devoni Sa’diy. Devoni Sodiq. Devoni G’oziy. Devoni Asad” kabi devonlardan tashkil topgan she’riy majmua saqlanadi. Majmua “Haft shuar” singari alohida nomlanmagan. Qo’qon fabrika silliq qog’ozida nasta’liq xatida qora siyoh bilan yozilgan. SHe’riy to’plamdan joy olgan ikkinchi devon muallifi “Sa’dulloh to’ra Sa’diy ”[3] – deb ko’rsatiladi va shoir Sa’diy she’rlari matni beriladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiy, Feruz, Bayoniy, Avaz O’tar, Tabibiy, Rojiy, Rog’ib, Komyob, Mutrib, Muhammad Rasul Mirzo kabi namoyandalari hayoti va ijodini tadqiq etish yuzasidan adabiyotshunoslik, adabiy manbashunoslik va matnshunoslikda muayyan yutuqlarga erishilgan bo’lsa-da, ular bilan zamondosh, bir adabiy

muhitda faoliyat olib borgan Sultoniy, Sa'diy, G'oziy, Asad, Murodiy, Sodiq, Farrux, Oqil kabi xon oilasidan etishib chiqqan ijodkorlar devonlari qo'lyozmalari hanuzgacha o'rganilmagan. Vaholanki, bugungi kunda shahzoda shoirlarning devonlari O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida, Xorazm Ichon qal'a qo'lyozma fondida va Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar akademiyasi SHarqshunoslik fondida saqlanmoqda. Xorazm devonchilik an'analarini o'rganish, shahzoda shoirlar tomonidan tartib berilgan devonlar qo'lyozmalarining o'zaro matniy-qiyosiy tadqiqi va tahlilini amalga oshirish o'zbek adabiyoti tarixini to'ldiradi hamda bu davrning tarixiy, madaniy, adabiy muhitini o'rganadigan tadqiqotlar uchun muhim manba bo'ladi.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. Mukammal asarlar to'plami. 3 jild. – T.: "Fan", 1988.
2. Bobojon Tarroh. Xorazm navozandalari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
3. Majmua. Qo'lyozma. Inventar raqami: P N – 909 V.
4. Qo'lyozma. Inv.raqami: A.P -7092.
5. Sayfulloh S. Na't g'azallar mohiyati. Alisher Navoiy. "Xazoyin ul-maoniy"dagi na't g'azallar. – T.: "Noshirlik yog'dusi", 2010.
6. Xajieva I.A. "Haft shuaro" majmuasining Xorazm adabiy muhitidagi o'rni. Filol.f.f.n. il.dar.Avtoreferat. – Toshkent, 2008. – B. 12.
7. Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehristi. – T.: "Yangi asr avlodi", 2000.

## **ISHQ ICHRA POKU PORSOLIG‘...**

**Zebo SAIDJANOVA**  
**UrDU o'qituvchisi**  
**(O'zbekiston)**

**Annotatsiya:** Maqolada shoir So'fi devonidagi g'azallarning asosiy qismi ishq mavzusida ekanligi misollar bilan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** shoir, ishq, taxallus,inson, axloq

**Аннотация:** В статье на примерах поясняется, что основная часть газелей в деване Суфи посвящена тему любви.

**Ключевые слова:** поэт, любовь, прозвище, человек, этика

Gulmira Turg'unova. Sharq va G'arb adabiyotining o'zaro ta'siri, mushtarak va farqli jihatlar.....	696
Sug'diyona Ergasheva Amiri shes'rlaridagi matniy tafovutlar ("Devoni Amiri" va "Majmuai shoiron" tazkirasidagi shes'rlar misolida).....	699
Abdulla Xudoyberganov. Turkiy xalqlar shes'riyatida Yassaviyning adabiy an'analariga qarashlar.....	703
Muxlisa Hafizova. Erkin Vohidov ijodida vatanparvarlik madhi.....	707
Shahnoza G'ofurova. Turkiy xalqlar adabiyotida Ozarbayjon adabiyotining tutgan o'rni.....	711
Dilafro'z Qalandarova. Jo'rayev Oybek. Abdulla Avloniy -mohir dramaturg va tarjimon.....	715
Muattar Hatamova. "Yusuf va Zulayho" dostoni va shu turkumdag'i dostonlar.....	718
Gavhar Kuvondiqova. Shoh Hijon "Shohnoma"sidagi inson tabiat tasvirini germenevtik talqinda o'rganish.....	722
Ra'no Xoliqova. "Mehrobdan chayon" romanining badiiy xususiyatlari.....	727
Setora Shirinova. Retrospektiv syujet va uning o'zbek qissachiligidagi qo'llanilishi.....	735
Asadullo Namozaliyev, Hilola Tojiahmedova, Farruh Farxodjonov. Halima Ahmedova shes'riyatida an'anaviylik.....	739
Muzayyyana Sobirova. Bargdek uzilib ketsam, unutmas meni bog'im.....	741
Dilzodaxon Abdullayeva. Amiri ijodida savolu javob.....	744
Markhabo Ibrokhimova. Attention to literature - attention to spirituality.....	750
Наргизахон Валиева. Особенности образов женщин в произведении Халледа Хоссейни «Тысяча сияющих солнц».....	754

### **MANBALARNI MATNIY TADQIQ ETISH MUAMMOLARI**

San'at Sariyev. O'zbek "G'o'ro'li" dostonlarining qo'lyozma nusxalari.....	759
Ahadjon Muhammadiyev. XIX asr Qo'qon adabiy muhitiga aloqador manbalar tadqiqi.....	762
Otabek Juraboev. Рукописи произведений Низами и Физули в фонде государственного музея литературы им. Алишера Навои.....	770
Is'haqjon Ismailov. Badiiyat va tarixiy asar matniy tadqiqi.....	773
Barno Mirzayeva. Nodir manbalar izidan.....	780
Sohiba Umarova. Sa'dulloh To'ra Sa'diyning "Devoni Sa'diy" asari matniy tadqiqi.....	784
Saidjanova Zebo. Ishq ichra poku porsolig'.....	788
Azamat Atayev. VIII – XIII asrlar Xorazm arabiyzabon muhiti manbalarida faxr va madh mavzusi (Qosim ibn Husayn badiiy ijodi misolida).....	794